

GLOBALLASHUV DAVRIDA MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKI- OLIMLARNING MAFKURAVIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA TUTGAN O'RNI.

Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining globallashuv davrida ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, shuningdek, mutafakkirlarning ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullarini ochib bergan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, odob, barkamol avlod, insonparvarlik, Abdulla Avloniy, Globallashuv, 21 asr, Ikkinchi muallim.

Markaziy Osiyo qadimgi davrdan boshlab tarbiyaga, ayniqsa yoshlarning axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor berib kelgan. Ota-onaga, kattalarga hurmat va izzat ko'rsatish eng ajoyib an'alarimizdandir. Bundan tashqari yulduzlar tunni yoritganidek, har bir xalqning daholari, olim-u mutafakkirlari, o'sha xalqning ma'naviyatini yoritib, jahonga ko'z-ko'z qiladi. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz, amal qilishlarini juda-juda istaymiz. Mana ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lish ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Yoshlar ongi va ma'naviyatini ezgu g'oyalar bilan kengaytirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyosini mustahkamlash orqali yomon g'oyalarga nisbatan ma'naviyat to'g'onini barpo etishda bizga qadimdan to shu davrgacha Markaziy Osiyodagi ma'aniv-ma'rifiy meroslardan foydalansak maqsadga muvofiqdir. Bugungi 21 asr Globallashuv davrida yon atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'lardi. Xqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda globallashuv davrida dunyo insoniyat oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birgalikda ularni ilgari ko'rilmagan yovuz xavf-

xatarlarga ham duchor etmoqda. Bu masalalarni hal etishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimiz va ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Isa at-Termiziy Muhammad asarlari arab tilida yozilgan bo'lib, bizgacha yetib kelmagan. Bu asarlarda barkamol avlodni adolatga, mehnatsevarlikka, birodarlikka, o'zaro hurmat va do'stlikka chaqiradi. U yolg'onchilik, yoshlar o'rtasidagi buzg'unchilikni qoralagan. Demak, Termiziy asarlarida yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilgan. O'rta Osiyoning ko'zga ko'ringan mutafakkirlaridan yana biri Abu Nasr Farobiydir. U axloqshunoslik – falsafiy qarashlari bilan mashhurdir. Farobiy pedagogic qarashlari, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda yoshlar xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlar alohida ahamiyatga ega. Farobiy bu ta'limiy qarashlarida narsa-hodisalarni bilish, yoshlar aqlini bilim bilan boyitishni ilmiy ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi jarayonlarga e'tibor beradi. U o'zining “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Ilmlar va san'atlar fazilati” kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali Ibn Sino asarlarida “Tadbir-e manzil”da inson tabiati avval boshdan fazilatli yoki axloqsiz bo'lishi mumkin emasligi haqida muhim fikr ta'kidlanadi. Odamlar avvaldan tayyor shaxsiy siflar, odatlar va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar, balki ularning shaxsiy tajriba, o'ziga o'xshashlarning tajribasi, ilgari avlodlarning an'analari, ta'lim va tarbiya jarayonida zaminiy shiddatli hayot davomida shakllantiradi deya uqtirganlar.

Bu davrda yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini ozida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarimiz ahamiyati va o'rni beqiyosdir. O'bek adabiyotida bunday asarlar juda ham ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning yoshlar axloqiy tarbiyasi uchun yaratgan to'rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud ilmiy ishlar” hamda “Birinch muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab guliston” kabi darsliklari ham xarakterli ahamiyatga ega. Bu asrlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslangandir. 20 asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbolar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinch muallim” asari ham o'ziga xos o'ringa ega edi. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” asariga suyanadi. Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari “Birinch muallim” asarining uzviy bog'liqligidir. Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ahamiyatga molik axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shuningdek u bola tarbiyasi haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida

¹. B. Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, -2004, -T.; Ma'naviyat

nafsi buzilib, tarbiasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidir”, deydi². Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to'g'risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrifidagi kishilar ahamiyatga ega. “Tarbiyaning zamoni” bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumayt va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. Avloniy tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot yo momamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”, - deya ta'kidlaydi. 1913- yilda quyidag keltirilgan xususiyatlarni o'zida jamlagan Abdulla Avloniyning “Turkiy gulistin yoxud axloq” asari bosilib chiqildi. Unda yana Yoshlarning fikrini rivoflantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Negaki, fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g'oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqlli odamning axloqsiz bo'lish qiyin. Avloniy esa ana shu ikki tushunchalarni yaqin va birgalikda bo'ladi³. O'zbekistonning kelajagi uchun yoshlarni insoniy qilish va ularning ruhiy-ma'naviy tarbiasini rivojlantirishning katta ahamiyati belgilanadi. Bu, mamlakatning umumiy hayot sifatini va rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir. Yoshlarni tarbiyalashda eng muhim o'rin ta'sirli bo'lib, ularning ilmiy darajasini oshirish va faol fuqarolar bo'lishini ta'minlash uchun muhimdir. Bu, ularning ilmiy dunyogarashini shakllantirish, ularni mehnatkor, g'ayratli, madaniyatli va vatanparvarlik bilan ta'lim berishning ahamiyatini ko'rsatadi. Yoshlarni virtual dunyoga o'g'itish, ularning ruhiy-ma'naviy oqimlarini rivojlantirish uchun asosiy qadam hisoblanadi. Maqolada ta'kidlangan barcha qarashlar, yoshlarimizning inson bo'lib o'sishiga yordam beradi va ularning jamiyatda o'z o'rinini egallashlariga imkoniyat yaratadi. Bu, har bir yigit va qizning qiziqishi, ehtiyoji va iqtidorlariga qarab amal qilishni talab etadi. Agar biz, o'zimizning tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarda ajdodlarimizning qarashlariga asoslangan holda, yoshlarimizning maxsus xususiyatlariga e'tibor qaratib, ularni to'g'ri yo'lga yo'rg'asak, ularning jamiyatda muvofiq o'rnini egallashiga ko'maklashamiz. Arastu ta'kidlaganidek “Munosib inson bo'lmoq – fazilatlar egasi, fozil bo'lmoq demakdir”⁴. Zero, munosib bo'lish jamiyatga xizmat qilishdir. Muhimi, yoshlarimiz o'z ota-bobolariga munosib merosxo'r bo'lishga intilishlari. Bu - bizning kelajakka bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlari yoshlarning barkamol o'sishi, orzu-istaklari, fikr o'ylarini aks etgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni elga munosib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, ularning ong-shuuriga axloq, go'zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo'lgan.

² Abdulla Avloniy. Tanlanga asarlar. 2-jild. “Turkiy guliston yoxud axloq”, - T.; Ma'naviyat, 2006.

³ Abdulla Avloniy. Tanlanga asarlar. 2-jild. “Turkiy guliston yoxud axloq”, - T.; Ma'naviyat, 2006.

⁴ A. Zunnunova-Pedagogika tarixi, - T.; Sharq, 2004.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. .B.Qosimov.Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T,;Ma'naviyat
2. Abdulla Avloniy.Tanlanga asarlar.2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq",-T,;Ma'naviyat,2006.
3. Abdulla Avloniy.Tanlanga asarlar.2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq",-T,;Ma'naviyat,2006.
4. A.Zunnunova-Pedagogika tarixi , - T, ; Sharq,2004.